

Mavzu: Soʻz va gap

*Agronom – bu qishloq
xōjaligi sohasining
mutaxassisi.*

agronomiya

Agronomiya dehqonchilikning ilmiy asosi, uning hamma sohalariga doir ilmlar majmuyidir.

Agronom – qishloq xoʻjaligi, ayniqsa ekinlarni yetishtirish, tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirish bilan shugʻullanuvchi mutaxassis.



1-mashq. Oʻqing. Nuqtalar oʻrniga mos soʻzlarni qoʻying va koʻchiring.

1. ... – ekinlarni qanday ekish, parvarishlash va yaxshi hosil olishni oʻrganuvchi hamda amalda tashkil etuvchi mutaxassis.
2. ... va ... qishloq xoʻjaligining asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi.
3. Hozirgi kunda issiqxonalarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, qishning qahraton kunlarida ham barra ... va ... yetishtirilmoqda.

Foydalanish uchun soʻzlar: dehqonchilik², sabzavot, chorvachilik, agronom, koʻkatlar.





1. Soʻz nimalardan iborat?
2. Gap nimalardan tuziladi?
3. Gap soʻz birikmasidan qanday farq qiladi?



2-mashq. Berilgan soʻzlardan sodda gaplar tuzing.

kuz, salqin, keldi, havo, yomgʻirli, kunlar, qisqaradi, bulutli, boshlanadi, hosil³, marra, yigʻishtiriladi, bajariladi



3-mashq. Gaplarning chegarasini aniqlang. Har bir gapning oxiriga nuqta qoʻying va koʻchiring.

Bobur bogʻi

Mirzo Bobur Hindiston degan yurtga borib qolib, u yerning sultoni – podshosi boʻlibdi⁵ u Hindistonning koʻrkam joyiga bir katta bogʻ barpo ettiribdi dunyodagi bu eng katta bogʻga turli yurtlardan olma-yu gilos, anor-u anjir, jiyda-yu yongʻoq, pista-yu bodom, nok, uzum-u oʻrik, behi-yu xurmo, koʻksulton-u olxoʻri kabi mevalardan, xilma-xil gullardan olib kelib koʻkartiribdi

xalq dunyoga dongʻi ketgan bu ulkan bogʻga “Bogʻi Boburiy” – “Bobur bogʻi” deb nom qoʻyibdi

“Asotirlar va rivoyatlar”dan

- Gapning birinchi soʻzini bosh harf bilan yozishni unutmang.





5-mashq. Matnni o'qing. Qanday? so'rog'iga javob bo'luvchi so'zlarni toping.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazida, Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan. Bu hududda yashagan xalqlarning tarixi ming yillarga borib taqaladi. Bu yerni haqli ravishda Sharqning eng qadimgi sivilizatsiya markazi deb atash mumkin.

Qadimiy Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi shaharlar o'zining betakror obidalar, mutafakkirlari, shoirlari hamda tabiblari bilan butun dunyoga tanilgan. Bugungi kunda ham ana shu boy tarixiy merosni asrab-avaylagan holda yurtimiz tinchlik, bunyodkorlik va zamonaviy taraqqiyot yo'lidan dadil odimlab bormoqda.

1. O'zbekiston geografik jihatdan qaysi daryolar oralig'ida joylashgan?
2. Nima uchun matnda O'zbekiston **Sharqning eng qadimgi sivilizatsiya markazi** deyilgan? O'z fikringizni matndagi ma'lumotga tayanib yozing.



6-mashq. Ko'chiring. She'rdagi ot so'z turkumiga oid so'zlarni toping va belgilang.

Poytaxtim Toshkent

Vatanim poytaxtisan,
Azim shahar Toshkentim.
Toshkentni non shahri deb
Tushungandir odamlar.
Qator-qator bozorlarda
Sarxil meva, bodomlar.
Ko'rkkinangga yarashmoqda
Masjid-u madrasalar,
Seni yana ko'rish uchun
Qo'yishmoqda qadamlar.

Miltiqboy Xonnazarov

